So‘roq qilish va yuzlashtirish tergov harakatlarini o‘tkazishda psixologik bilimlardan foydalanish

Xaydarjon Odilboyevich Jurayev
Dilnavoz Ulug‘bek-qizi Axmadjanova
Diyorbek Raxmatillo-o‘g‘li Roxataliyev
University of business and science

Annotatsiya: Mazkur maqolada so‘roq qilish va yuzlashtirish tergov harakatlarini amalga oshirishda psixologik bilimlardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Tergov jarayonida shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, emotsional holati, xotirasi, diqqat jarayonlari hamda muloqotga kirishish xususiyatlarini hisobga olish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, so‘roq qilishda psixologik muloqot strategiyalarini qo‘llash, yuzlashtirish jarayonida ziddiyatli ko‘rsatmalarni aniqlashtirish va psixologik ta’sir mexanizmlaridan qonuniy hamda axloqiy me’yorlar doirasida foydalanishning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: so‘roq qilish, yuzlashtirish, tergov harakatlari, yuridik psixologiya, psixologik bilimlar, muloqot, xotira, emotsional holat, individual-psixologik xususiyatlar, tergovchi

The use of psychological knowledge in conducting interrogations and confrontations

Xaydarjon Odilboyevich Jurayev
Dilnavoz Ulug‘bek-qizi Axmadjanova
Diyorbek Raxmatillo-o‘g‘li Roxataliyev
University of Business and Science

Abstract: This article examines the theoretical and practical aspects of applying psychological knowledge during investigative procedures, particularly interrogation and confrontation. It analyzes the importance of considering participants’ individual psychological characteristics, emotional states, memory, attention, and communication patterns throughout the investigative process. Particular attention is given to psychological communication strategies during interrogation, clarifying contradictory testimonies during confrontation, and applying psychological methods within legal and ethical boundaries.

(cc) BY

Keywords: interrogation, confrontation, investigative procedures, legal psychology, psychological knowledge, communication, memory, emotional state, individual psychological characteristics, investigator

KIRISH

So‘roq qilish va yuzlashtirish tergov jarayonining muhim protsessual harakatlari bo‘lib, ularda psixologik bilimlardan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Chunki ushbu jarayonlarda insonning individual-psixologik xususiyatlari, xotirasi, diqqati, hissiy holati va muloqotga kirishish qobiliyati ko‘rsatmalarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Psixologik yondashuv tergov harakatlarini samarali tashkil etish, ma’lumotlarni aniqlashtirish hamda shaxslararo munosabatlarni to‘g‘ri baholashga yordam beradi. Shu bois so‘roq qilish va yuzlashtirishda psixologik bilimlardan qonuniylik va kasbiy etika tamoyillari asosida foydalanish muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligiga asosan dastlabki tergov davomida tergovchi (surishtiruvchi) tomonidan ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan-bermaganligini, shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybli-aybsizligini va ishni to‘g‘ri hal qilish uchun haqiqiy ma’lumotlar, ya’ni dalillar to‘plash maqsadida, boshqa tergov harakatlari qatorida so‘roq tergov harakatini ham o‘tkazadi. So‘roq jinoyat ishi bo‘yicha dalillarni to‘plashning eng keng qo‘llaniladigan usuli bo‘lsa-da, lekin bir vaqtning o‘zida eng og‘ir tergov harakatlaridan biri hisoblanadi. Chunki so‘roqni o‘tkazishda tergovchidan umumiy, psixologik va kasbiy madaniyatining yuqoriligi, inson psixo-logiyasini chuqur bilishi, so‘roqning taktik usullarini qo‘llashda psixologik bilimlardan mohirona foydalana olishi talab qilinadi. So‘roqning asosiy psixologik vazifasi ishonchli ko‘rsatuvlar olish va yolg‘onni fosh etish maqsadida psixologik ta’sir etishning qonuniy usullaridan foydalanish hisoblanadi.

So‘roq qilish - bu tergovchining so‘roq qilinayotgan shaxs bilan davomli, mazmunli, bevosita muloqotidir. Bu suhbat (dialog) bo‘lib, bunda faqat haqiqat izlanadi. So‘roq chog‘ida ikki xil dunyoqarash, ikki iroda, ikki kurash taktikasi, turli manfaatlar to‘qnashadi. So‘roq natijasiga ko‘ra so‘roq qilinuvchi yoki boshqa shaxslarning taqdiri, ya’ni aybli yoki aybsizligi hal qilinadi. So‘roqning samaradorligini tergovchining matonat, dadillik, hissiy barqarorlik, hayotiy tajriba, kasbiy bilim, tergov harakatini mantiqan to‘g‘-ri olib borish qobiliyati singari boshqa ijtimoiy xislatlari ham ta’minlaydi. So‘roq qilinayotgan shaxsga zarur individual-psixologik yondashuvni topa olish tergovchining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu yonda-shuv so‘roq qilinayotgan shaxsning yoshi, jinsi, ma’lumoti, kasbi, hayotiy tajribasi, madaniyatlilik darajasi, qiziqishlari (manfaatlari), qarashlari, so‘roq qilish paytida his qilayotgan ruhiy holati kabilarni hisobga olishni nazarda tutadi. Tergovchining prinsipialligi, adolatliligi, halolligi, so‘roq qilinuvchi-larning ichki kechinmalariga xayrixohlik bildirishi so‘roq qilinayotgan shaxslarda

(cc) BY

tergovchiga nisbatan hurmat qilish, to‘g‘ri ko‘rsatuvlar berish va tergovga yordamlashish istagini uyg‘otadi. Tergovchining tashqi kommunikativ xislatlariga uning tashqi ko‘rini-shi, jismoniy jihatlari, o‘zini tutishi, kiyinish uslubi kabilar kiradi. Tergov-chining batartibligi, kiyimining sipoligi, ozodaligi, oddiyligi, xushmuoma-laligi, kirishimliligi, e’tiborliligi, ishga oid uslubi, xayrixohligi - bularning hammasi so‘roq qilinuvchilar tomonidan ishonch, muloqotga tayyorlik hissining paydo bo‘lishiga imkon beradi.

Tergovchilar kasbiy faoliyatining o‘ziga xos jihatlaridan biri tergov ishtirokchilari bilan tergov harakatlarini olib borishida muomala madaniyati muhim o‘rin tutadi. Tergovchi o‘z faoliyati davomida turli yoshdagi, kasb-dagi va turli huquqiy maqomga ega bo‘lgan shaxslar bilan muomala qilishi-ga to‘g‘ri keladi. Bu esa xodimdan shaxs psixologiyasini, xususan muoma-laning psixologik mexanizmlari va qonuniyatlarini bilishni talab etadi. Tergovchilar tomonidan so‘roqqa kelgan shaxsning ruhiy holatini ham hisobga olish zarur, chunki ko‘pchilik odamlar uchun tergovchining huzuriga chaqirtirilishning o‘zi hayajon, vahima va sarosimalarni keltirib chiqaruvchi noodatiy voqea hisoblanadi. So‘roq qilishning lozim darajada-gi psixologik vaziyatini o‘rnatish yo‘lidagi to‘siqlardan biri so‘roq qilinuv-chining ayrim psixologik xislatlari, jumladan ishonchsizlik, haddan tash-qari uyatchanlik va muloqotdan qochishdir. Tergovchi tomonidan so‘roqqa chaqirilgan shaxsni asossiz uzoq vaqt kuttirib qo‘yishi, behurmatlik, manmanlik va qo‘pollik qilishi, tashqi ko‘ri-nishining betartibligi, so‘roq qilinayotgan joyda ishga aloqasi bo‘lgan yoki aloqasi bo‘lmagan boshqa shaxslarning ishtirok etishi, so‘roqqa chaqirish vaqtini to‘g‘ri tanlanmasligi, haqoratli so‘zlarni ishlatishi va boshqa holat-lar ham so‘roqqa kelgan shaxsda tergovchiga nisbatan nafrat uyg‘otadi va so‘roqdan ijobiy natijalarga erishishga to‘siq bo‘lishi mumkin. So‘roq qilish tergovchining so‘roq qilinayotgan shaxslar bilan bevo-sita muloqoti bo‘lganligi sababli, avvalo muloqot jarayoniga psixologik tavsif va psixologik aloqa o‘rnatishning usullariga to‘xtalib o‘tish maq-sadga muvofiqdir. Tergovchilar so‘roq tergov harakatini amalga oshirishda jinoyat jarayoni ishtirokchilari bilan muloqotga kirishadilar.

Ular faoliyatining samaradorligi odamlar bilan muloqotga kirishish, psixologik aloqa o‘rnatish qobiliyatlariga bog‘liq. Kommunikativ xususiyatlar tergovchilar kasb mahoratining muhim tarkibiy qismidir. Muloqot ijtimoiy psixologik hodisa bo‘lib, odamlar o‘rtasida birgalik-dagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan aloqalar rivojlanishining ko‘p qirrali jarayonidir. Shaxslar o‘zaro munosabatga kirishar ekan, aloqaning eng muhim vositalaridan biri sifatida tilga murojaat qiladilar. Muloqotning yana bir muhim tomoni shundaki, munosabatga kirishuvchilar muomala jarayonida faqat so‘zlar bilan, ya’ni «verbal» emas, balki xatti-harakatlar bilan, ya’ni «noverbal» ham axborot ayirboshlashadilar. Muloqot jarayoni shaxslarning qiziqishlari, dunyoqarashi, muomala madaniyatiga ham bog‘liq bo‘ladi, chunki shaxslardagi

(cc) BY

o‘zaro muloqot bu tabiiy ehtiyojdir. Kasbiy muomala har bir tergovchining faoliyatida muhim o‘rin egal-laydi. Shuning uchun ham muomalaning har bir turi faoliyat jarayonida ishtirok etadi. Xodim muomala qonuniyatlariga suyangan holda shaxslar bilan munosabatga kirishadi. Muloqot jarayonida xodimning barcha kasbiy sifatlari (xotira, diqqat, idrok, sezgi, tafakkur, xayol) ishtirok etadi. Bu jarayonlar xodimni mantiqiy fikrlashga, voqeani o‘tmishdagi vaziyat bilan bog‘lashga, o‘zaro solishtirish va qiyoslash, obyekt va sharoitni mukam-mal tarzda idrok etishga yordam beradi. Muloqot psixologik jihatdan bir-birlari bilan bog‘liq odamlar o‘rtasida u yoki bu vositalar orqali maqsadga muvofiq, bevosita yoki bilvosita aloqani o‘rnatish va saqlab turish jarayonidir1.

Tergovchilar faoliyatida muloqotning quyidagi turlari mavjud:

1) bevosita; 2) bilvosita; 3) rolli; 4) mazmunli; 5) rasmiy; 6) norasmiy. Bevosita muloqot - bu so‘roq jarayonidagi kabi «yuzma-yuz» suhbat bo‘lib, uning har bir ishtirokchisi idrok qiladi, aloqa qiladi va hamma mavjud vositalarni keng qo‘llaydi.

Bilvosita muloqot ham aloqa vositasi bo‘lib, unda shaxslar, aloqa vositalari va mexanizmlar ishtirok etadi (masalan: telegraf, telefon, inter-net orqali gaplashish). Muloqotning ba’zi turlari ijtimoiy rollar orqali amalga oshirilib, rolli muloqot deyiladi. Bunday holatda odamlar muayyan ijtimoiy rollarni bajaruvi kishilar tarzida muloqotga kirishadilar. Masalan, tergovchi va jinoyat jarayonining boshqa ishtirokchilari o‘rtasidagi muloqot rollidir. Individning boshqa shaxsga o‘z holati, kayfiyati, xohishini mimika, harakat, imo-ishora orqali bildirishi mazmunli muloqot deb ataladi. Rasmiy muloqot yuridik kuchga ega bo‘lib, shaxs, davlat va jamiyat manfaatini ko‘zlagan hamda tegishli hujjatlarda qayd etiladigan muloqot turidir. Tergovchilarning tergov harakatlari, aynan so‘roq jarayonidagi muloqoti ham rasmiy muloqot hisoblanadi. Shaxslararo o‘zaro muloqot jarayonida o‘zini qiziqtirgan u yoki bu ma’lumotga ega bo‘lishi norasmiy muloqot hisoblanadi.

XULOSA sifatida So‘roq qilish va yuzlashtirish tergov harakatlarini o‘tkazishda psixologik bilimlardan foydalanish tergov jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Chunki ushbu jarayonlarda ishtirokchilarning individual-psixologik xususiyatlari, emotsional holati, xotirasi, diqqati va muloqot uslubi ularning ko‘rsatmalariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. So‘roq qilish jarayonida psixologik bilimlar orqali samarali muloqot o‘rnatish, savollarni to‘g‘ri shakllantirish, shaxsning ruhiy holatini hisobga olish va olingan ma’lumotlarni aniqlashtirish imkoniyati yuzaga keladi. Yuzlashtirish jarayonida esa qarama-qarshi ko‘rsatmalarni tahlil qilish, ishtirokchilarning o‘zaro munosabatlarini hisobga olish va mavjud ziddiyatlarni aniqlashtirish muhim hisoblanadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, shaxsning yuz ifodasi, ovozi, imo-ishoralari yoki hayajonlanishi uning yolg‘on gapirayotganini bevosita isbotlamaydi. Shu sababli psixologik kuzatuv natijalari boshqa dalillar bilan birgalikda, xolis va ilmiy asosda baholanishi zarur. Umuman

(cc) BY

olganda, tergov faoliyatida psixologik yondashuvdan foydalanish qonuniylik, xolislik va inson huquqlariga hurmat tamoyillari bilan uyg‘unlashgandagina samarali natija beradi.

TAVSIYALAR

1. Tergovchilarning yuridik va amaliy psixologiya bo‘yicha bilimlarini muntazam oshirib borish.

2. So‘roq qilish jarayonida shaxsning yoshi, temperamenti, individual-psixologik xususiyatlari va emotsional holatini hisobga olish.

3. Savollarni aniq, tushunarli va xolis shakllantirish, yo‘naltiruvchi hamda bosim o‘tkazuvchi savollardan foydalanmaslik.

4. Yuzlashtirish jarayonida ishtirokchilarning o‘zaro psixologik munosabatlari va hissiy reaksiyalarini hisobga olish.

5. Guvoh, jabrlanuvchi va gumon qilinuvchilarning xotirasi hamda voqeani idrok etishidagi individual farqlarni inobatga olish.

6. Psixologik kuzatuv natijalarini yagona dalil sifatida qabul qilmasdan, ularni boshqa tergov ma’lumotlari bilan kompleks tahlil qilish.

7. Zarur hollarda tergov jarayoniga malakali psixolog-mutaxassislarni jalb etish.

8. Barcha tergov harakatlarida qonuniylik, kasbiy etika va inson qadr-qimmatini hurmat qilish tamoyillariga qat’iy rioya etish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmanova A.A., Norboev A.N.. YUridicheskaya psixologiya. TGYUI. 2005 g.

2. Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi. ―Turon-iqbol‖ nashr. T. 2006 -118 b

3. Umarov B., Xolnazarova M. X. Yuridik psixologiya. Darslik. Guliston. GulDU.2022. -229 b.

4. Norboyev A.N., Usmonova A.A. Yuridik psixologiya. O`quv qo`llanma. T.2006.-67

5. Исмоилов К. Ҳуқуқий психология ҳамда судьяларнинг касбий-малакавий ҳуқуқий психологияси тушунчалари. Т. ―Ношир нашр. 2011. -26 б.

6. Dastlabki tergov faoliyati psixologiyasi: Darslik / B.N. Sirliyev, I.A. Sottiyev va boshq.; Sh.T. Ikramovning umumiy tahririda. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 329 b.

7. Jurayev, X. O. (2024). Shaxsning ijtimoiylashuv jarayonida o ‘z men konsepsiyasining psixologik mexanizmlari. Science and Education, 5(9), 237-242.

8. Odilboyevich, J. X. (2025). DEVIANT XATTI XARAKATLARNING NAMOYON BO'LISHIDA XARAKTER AKSENTUATSIYASINI O'RNI. Международный журнал научных исследователей, 10(2), 29-34.

9. Jurayev, X. O. (2023). O ‘smirlarda xarakter aksentuatsiyasi tiplarining deviand xulq-atvor shakllanishiga ta’sirining psixologik mexanizmlari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(9), 560-569.